

O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi

Ajiniyoz nomidai Nukus davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti

O`zbek adabiyoti kafedrasи

**5141100–O`zbek tili va adabiyoti bakalavr  
ta'lim yo'naliishi 3-A kurs tolibi**

**MADATOV NURBEK**

**G'.G'ULOMNING «SEN YETIM EMASSAN» SHE'RINI  
IFODALI O'QISH**

*mavzusida*

***REFERAT***

**NUKUS – 2012**

# **G'.G'ULOMNING «SEN YETIM EMASSAN» SHE'RINI IFODALI O'QISH**

**REJA:**

**I.Kirish**

**II.Asosiy qism:**

- 1.Lirk asarlarni ifodali o'qish**
- 2.Lirk asarlarni tahlil qilishning maqsad va vazifalari**
- 3. G'.G'ulomning «Sen yetim emassan» she'rini ifodali o'qish**

**III.Umumiy xulosalar**

**IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

## KIRISH

V – IX sinflarda o'quvchilar mактаб o'quv dasturidan o'rин olgan she'riy asarlarni o'qib o'рганадilar. Ularni o'рганишда har bir she'rning shoир ijodida tutgan o'rni, she'rda shoир shaxsiyati, obrazining ifodalanishi o'quvchilarning yoshi va bilimi darajasiga mos ravishda tahlil qilinadi, she'rning mazmuni beriladi.

Bu sinflarda lirik asarni o'рганишning asosiy usuli o'qituvchi va o'quvchining ifodali o'qishidir. Bu ishda o'qituvchining o'zi she'mi ifodali o'qiydi, so'ngra ifodali o'qish qoidalariga rioya qilgan holda o'qishni o'quvchilardan talab etadi.

Ifodali o'qish bilan o'quvchi she'rda shoир tasvirlagan voqea, manzara, obraz haqida tasavvurga ega bo'ladi. Bunga u, har bir so'z, misra mazmunini chuqur o'zlashtirish orqali erishadi.

Mактабда she'riy asarlar turli shaklda tahlil qilaniladi: aniq reja asosida ifodali o'qiladi, ayrim so'z, misralarga izoh beriladi, obrazlar taqqoslanadi, suhbat tashkil qilinadi, tabiatga sayohat (bu sirdan bo'lishi ham mumkin) uyushtiriladi, rasmlar namoyish etiladi, texnika vositalaridan foydalaniladi. Bu usullar ko'zlangan maqsad va vazifadan kelib chiqqan, xususiyati, o'quvchilar tayyorgarligi, qiziqishini hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Lirik asar tahlili kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan suhbat yo'li bilan o'tказилгanda o'quvchilar o'qituvchining asar va uning muallifi haqida qilgan qiziqarli kirish so'zini qiziqish bilan tinglaydilar va suhbatda faol ishtirok etadilar.

## **1.LIRIK ASARNI IFODALI O'QISH**

Tinglovchiga asarning g'oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazish ifodali o'qish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifadir. Shu maqsadda har bir talaba ifo-dali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi kerak. Uni puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi. To'g'ri, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qila bermaydi. Har qanday asarni ifodali o'qishga kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rgani-shi lozim.

She'riy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari o'qiladigan asarlarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va band qurilishiga bog'liq. Biz qo'yida barmoq va aruz she'riy tizimiga mansub asarlarni o'qish haqida qisqacha fikr yuritib, misollar keltiramiz. Barmoq tizimidagi she'rlar aruz tizimidagi she'rlardan tuzilishi va o'qilishi jihatdan farq qiladi. Barmoq tizimidagi she'rlar cho'ziq va qisqa bo'g'lnlarga ajratilmaydi, balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Unda misralardagi hijo (bo'g'in) larning soni bir hilda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil bo'ladi.

Qiziq, har yil yanvarda  
Men tug'ilgan bir kun bor.  
Kelishadi mehmonlar,  
Eg'ib turganda ham qor.

(Zulfiya)

Bu she'rning har bir misrasida hijolar soni yettitadandir.

Qi-ziq, har yil yan-var-da  
Men tu-g'il-gan bir kun bor.

Ke-li-sha-di meh-mon-lar,  
E-g'ib tur-gan-da ham qor.

Barmoq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Barmoq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan. Barmoq tizimi shunchalik uzoq tarixga ega bo'lismiga qaramay hozirgacha eskirgan emas, balki hozir ham o'zbek poeziyasida yetakchi o'rinni egallab turibdi. O'zbek poeziyasida barmoq tizimining turi hi-joli vazndan tortib, o'n olti hijoli vazngacha bo'lingan o'n uch turi mavjud. Misradagi hijolarning turlicha kelishi natijasida vaznning soni ham ko'payib boraveradi.

Masalan, Mirmuhsinning she'ridan olingan to'rt hijoda yezilgan.

Vatan ko'rkam, - 4  
Bahor o'lkam. - 4  
(Mirmuhsin)

Hozirgi o'zbek poeziyasidagi she'riy asarlarning ko'pi 7, 9, 11, 12, 13 hijolidir. 4, 5, 6 hijoli she'rlar ko'proq bolalar poeziyasida uchraydi. Yuqorida tilga olingan she'rlar vazni bir turkimga kiruvchi hijolar guruhidan tashkil topgan va shuning uchun ular sodda vaznga mansubdir. O'zbek poeziyasida sodda bilan birga qo'shma va erkin vaznlar ham mavjud. Agar she'rning har bayti ik-ki turkimga kiruvchi bo'g'inlar sonidan tashkil topsa qo'shma vazn maydonga ke-ladi.

Masalan: Mehnatda mehnatchilar, - 7

Ezildi bu tanlar. - 6  
Bizlarda chin ozodlik - 7  
Bo'larkim qachonlar - 6  
(Hamza)

Gruzin shoiri Shota Rustavelining Maqsud Shayxzoda va Mirtemir tomonidan tarjima qilingan "Yo'lbars terisini yepingan pahlavon" nomli asarlari ham qo'shma vazn namunasidir.

Barmoq tizimidagi she'rlarni ifodali o'qishga faqat hijolarning tartibagina emas, balki turoqlarga ham katta ahamiyat bermog'i lozim. Chunki turoq she'rning musiqiyligini tartibga solib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, turoq she'rining ritmini va o'ynoqligini tartibga solib turuvchi asosiy omillardan biridir.

Rahmat aka

Muborakka

Mag'azindan

Oldi birdan

Qo'g'irchoq,

Qo'g'irchoq,

Qo'g'irchoq,

Bog'chadan qiz

Yurib tez-tez

Borsa o'yiga,

Tayer unga

Qo'g'irchoq,

Qo'g'irchoq,

Qo'g'irchoq,

(Q.Hikmat)

Yuqorida barmoq tizimida yezilgan she'rlarda bittadan to'rttagacha turoq borligini ko'rib o'tdik. Har bir turoqda esa bir necha hijo bo'lishi mumkin.

Masalan:

Na ko'kning (fonari) o'chmasdan,

Na yulduz (sayr etib) ko'chmasdan,

Na ufq (o'ramay) yequt zar,

Na bulut (silkitmay) oltin par,  
Tong kulub (boqmasdan) Jontemir,  
Quyuq bir (zavq bilan) turardi.

(Uyg'un)

Mahsud Shayxzodaning "Muhammad to'pchi" balladasida esa turoqlar ichidagi hijolar 8-5 shakilda kelgan:

Ko'za olib G' chiqqan yaxshi qiz,  
Go'zallarning G' xusni naqshi qiz,  
Bir jon suv ber G' suving ko'p sovuq,  
Kim uchun bu G' aytganing qo'shiq  
U qahramon G' bo'lib kelajak,  
Tez kelmasa G' kelar bir darakYo

(Maqsud Shayxzoda)

Erkin vazindagi she'rning tarixi V.V.Mayakovskiy nomi bilan bog'liqdir. Ygirmanchi yillar mafkuraviy kurash jarayenida erkin vaznga ehtiyej tug'ildi. San'atkorlarning ko'pchiligi shu vaznda o'z kuchlarini, imkoniyatlarini sinab ko'rdilar. V.V.Mayakovskiy shunday san'atkorlarning bayroqdori bo'ldi.

"Poeziyani baland minbar, katta maydon, tinglovchilarning buyuk uyushma-lariga yetkazish niyati V.V.Mayakovskiyni she'rning yangi shakl, xitob va nido shaklini izlash, minbar she'rining yangi premlarini ishlashga, hujra she'rida bo'limgan balandliklarga chiqarishga majbur qildi." U miflarni yangi-yangi satrlarga bo'lib tashladi. Buning natijasida poetik tilni jonli so'zlashuv ti-liga yanada yaqinlashtirdi. Ularni ifodali o'qiganingizda ritimning turlanib turishini, lirk qahramonning kayfiyati tez-tez o'zgarib borishini sezish qiyin emas.

Erkin vaznda yaratilgan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ritmik pauzaning mo'lligidir. Erkin vazndagi she'rlarda jumlalarning qisqa-

qisqa bo'lishi uning jangovarlik ruhini oshiradi. Bunday asarlarda ohang, ritm, intonatsiya, urg'u kuchli bo'lganligi uchun ularni adabiy kechalarda o'qish, deklamatsiya qilib aytish qulaydir. Erkin vaznli she'r tuzilishi jiha-tidan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, misralar hijolarining soniga emas, balki ohang, ritm va intonatsiya mutanosobiligiga asoslanadi. Erkin vazn ho-zirgi o'zbek poeziyasida Hamza Hakimzoda Niyezining jangovar poetik asarlari orqali kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik Hamid Olimjon, "afur "ulom va boshqa shoirlar ijodida yanada kamol topdi. Hamid Olimjonning "Baxtlar vodiysi" she'ri bu vaznning go'zal namunasidir:

Dillar,  
havas bilan to'ladi,  
Yuzlar,  
sevinch sepib kuladi.  
To'rt tomoni osmon bilan  
o'ralgan vodiy  
Kundan-kunga,  
husni ortgan oydek  
to'ladi.  
Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k... Ko'm-ko'k...

Bu she'rni ifodali o'qiganda, she'rning mazmuni va o'ziga xos erkin shaklidan kelib chiqqan maqulroq. Buning uchun shoirning fikri, hayajonini chuqur his etishga intilish kerak.

Muallif bunedkor xalqimizning fidoyi mehnati tufayli diyerimizning gullab-yashnayetganini zo'r pafos bilan ko'ylaydi. Lirik qahramonning jo'shqin kayfiyatini, his tuyg'usini to'laroq ifoda etish uchun unga mos so'zlar tanlaydi va satrlari zinapoyalarga bo'lib yuboriladi. Zero fikrning jo'shqinligi va publitsistik ruhda bayen etishi erkin she'rga xos muhim xususiyatlardan biridir.

Mirzo Tursunzodaning "Osiye ovozi" nomli she'ri yuqoridagi fikrlarning yerqin dalilidir.

Osiye so'ylaydi  
tinglang ovozin  
Jo'shqin dare mavjin,  
haykiriq sozin,  
Osiye uyg'ondi,  
uxlamas uyg'oq  
Rostlik, do'stlik bo'ldi  
u bilan o'rtoq.

Umuman erkin vazndagi she'rlarni ham ifodali o'qishdan oldin turoq va hijolari aniqlanib, pauza va urg'uli so'zlar belgilab olinsagina asar g'oyasiga tushinib yetish oson bo'ladi.

Har qanday she'r mustahkam hayetiy zaminga ega. Kundalik turmushda shun-day paytlar bo'ladiki, kishi beixtiyer qofiyalashtirib gapirib yuboradi. Bu hol garchi she'riy element bo'lsa ham, biroq uni hali she'r deb bo'lmaydi. Gapiruvchi biror narsadan g'oyat ta'sirlangan, ruhlangan paytda shunday holat yuz beradi.

She'riyat, shu kabi mustahkam hayetiy asoslari borligiga qaramay, u shartli nutqdir. Shuni aytish kifoyaki, opera, balet, muzika kabi san'at janrlari ham mustahkam hayetiy va ijtimoiy asosga ega. Lekin ularning barchasi hayetning shartli ifodasi, badiiy in'ikosidir.

A.S.Pushkin va M.Yu.Lermontov, H.Olimjon, Uyg'in, "afur, Erkin Vohidov kabi shoirlarning she'riy asarlari ham hayetiy voqealik asosida yaratilgan va ularning har biri o'ziga xos xususiyatiga ega. Shu sababli ularni o'qishda har bir shoir poeziyasiga xos xususiyatlarni, har bir asarning tarkibiy, o'ziga xos nafosatini ham ochishga e'tibor beriladi. Shundagina ifodali o'quvchi asarga xos xususiyatlarni mukammal va puxta o'rganib, o'zlashtirib

oladi. O'rganish va o'zlashtirish jarayeni esa g'oyat serrqirra va murakkab bo'lib, bilim mehnat va iste'dod talab qiladi.

Shoir o'z asarini yaratish jarayenida hayetiy nutiqni shartli ixchamlashti-radi, muayyan sintaksistik qurilishlarga asoslanib she'rlar tuzadi va ayni paytda, hayetiy nutqni saqlab qolishga ham harakat qiladi. Shuning uchun ham she'riyatda tasvirlangan real voqelik, mutanasiblik badiiy haqiqat deb atala-di. She'rni shartli nutqqa aylantiruvchi omillar juda ko'p. Bu-asosan vazn, qofiya, band kabi she'riy mazmun muayyan shaklda ifoda etuvchi komponentlar-dir. Bu omillarning barchasi muayyan adabiy qonun - qoidalar atrofida bir-lashdiki, she'riyatni ularsiz tasavvur etish mumkin emas.

## **2.Lirik asarlarni tahlil qilishning maqsad va asoslari.**

Ma'lumki, lirikada nasriy va dramatik turlardan farqli o'laroq, voqelik shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, shoir his-tuyg'usiga to'la beriladi. She'riy shakl lirikada ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi.

Vogelikning muayyan shaxs (subyekt) orqali aks etishi lirika xarakterini belgilovchi muhim xususiyatdir. Ana shu xususiyat lirikada juda ko'p masalalarni o'ziga xos shaklda hal etishni taqozo qiladi. Lirik asar, odatda, kichik hajmli bo'lishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega bo'ladi. Lirikada ham vogelik qarama-qarshilik nasriy asar, dostonlardagi kabi voqe - hodisalar orqali emas, balki tuyg'ular ziddiyatli, kurashi orqali aks etadi. Demak, nasriy asarda voqealar rivoji, lirikada esa kechinmalar rivoji yetakchilik qiladi. Mana shu kechinmalar rivoji lirik qarama-qarshilikdan iborat bo'lib, u hamma vaqt chegaralangandir. Bu qarama-qarshiliklar asosni eskilik bilan yangilik, yaxshilik bilan yomonlik, go'zallik bilan xunuklik, oljanoblik bilan pastkashlik o'rtasidagi kurash tashkil etadi. Shu tarzda lirik asarda ham aniq shaxsiy kechirmalar ifodalanadi, shu jihatlari bilan shaxsiy kechinmalari orqali hayotning go'zal va xunuk tomonlari aks ettiriladi. «Kechinma» so'zi keng ma'noga ega bo'lib, u turli sharoitda yuzaga kelgan turli emotsiyalarni o'z ichiga oladi. Falsafiy va siyosiy fikrlar ham, sevgi haqidagi o'ylar ham, garchi o'z mazmuniga ko'ra turlichcha bo'lsada, aniq insoniy his va sub'ektiv emotsiyonal xususiyatga ega bo'lgan fikr sifatida kechinmalar tarkibiga kiradi. Shu boisdan lirik she'rlar hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, chuqur mazmunli bo'ladi. Doston, masal, hikoya, qissa va romanlarda yozuvchi boshqa odamlar haqida, lirik she'rlarda esa yozuvchi o'zi to'g'risida, o'zining xayol

va o'ylari, orzu – istaklari, hissiyotlari va boshqa odamlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradi. Hikoya, qissa, roman va masallarda yozuvchi tasvirlanayotgan voqeaga xolis munosabatda bo'lib, unga o'z bahosini beradi. Lirik asarlarda esa bu munosabat shoirning kechinmalari va his – tuyg'ulari orqali ifoda etiladi. Lekin hayotga bo'lgan munosabatini hamisha o'zi – birinchi shaxs nomidan emas, balki ayrim hollarda ikkinchi va hatto, uchinchi shaxs nomidan ham ifodalashi mumkin.

Lirik tur janrlarning asosida ham inson hayoti, muhabbat va nafrati, sevinchi va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi. Insonning hayot hodisalari va tabiatga munosabatidan turli – tuman lirik lavhalar, lirik janrning xilma – xil turlari yuzaga keladi. Shu sababli boshqa adabiy turlarga mansub bo'lgan qarama – qarshilik, xarakter, syujet, kompozitsiya, tipiklashtirish va individu allashtirish kabi adabiy tushunchalar lirikaga ham xos bo'lib, ular lirikaning o'ziga xos tabiati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Maktabda lirikani o'rganishda uning ana shu xususiyatlarini ochishga e'tibor beriladi.

### **3. G'.G'ulomning «Sen yetim emassan» she'rini ifodali o'qish**

G'.G'ulom yoshligida og`ir turmush tufayli oliy ma'lumot olishga ulgurmadi, biroq 'ayot atalmish oliy darsxona sabog`ini oldi.

G'.G'ulom 1903 yil 10 mayda Toshkent sha'rida de'qoncha yil sanog`i bilan baliq yilida tug`ildi. Uning otasi G'ulom aka kambag`al de'qon edi: tirikchilik o`tkazish og`ir bo`lib, butun oila mu'tojlikda kun kechirardi.

G'.G'ulom 9 yoshga etganida otasi vafot etdi, oila o`z boshlig`idan ajralib yanada mushkul a'volda qoldi. «Otam 1912 yilda 44 yoshda.. Qo`rg`on tagi ma'alladagi 'ovlimizda vafot qildi, - deb yozadi. G'.G'ulom. - 'ovli bo`lganda ham qanday deng?! Qo`rg`on tagida, yaoni «na dne»da 25 kvadrat sarjinli za'kash, tutday to`kilay deb turgan bir 'ovlida o`pka shamollahidan o`ldi... Biz besh etim bola qolaverdik...» Ko`p o`tmay onasi Toshbibi ayadan ham ajraydilar. YOsh G`ofur kishilar eshigida kun ko`rib me'nat qila boshлади: etikdo`z kotibga shogird tushdi, tegirmonga qorovul bo`ldi, boyning bog`ida qo`riqchilik qildi, xullas oilani tebratish uchun elib-yugurdi. Ko`p o`tmay G'.G'ulom odamlar eshigidagi xizmatlarini «SHum bola» qissasiga singdirib yubordi.

Birinchi ja'on urushining boshlanishi va mardikorlikka olish voqealari tufayli xalq boshiga tushgan mashaqqat va musibatlarni u o`z ko`zi bilan ko`rdi. Jadidlar tashkil etgan «‘ayot» mактабида та'sil oldi. So`ng 1916 yilda «8-e Samsonskoe russko-tuzemnoe uchilishe» da ta'sil oldi. Rus adabiyoti bilan tanishdi. L.Tolstoy, Pushkin, Lermontov asarlari bilan tanishdi.

1918 yilda G'.G'ulom onasi Toshbibi SHoyusuf qizidan ajralgach, uchta etim singillarini boqish va tarbiyalash 15 yasharligidan uning zimmasiga tushdi:

bosmaxonada harf teruvchi bo`lib ishladi, 8 oylik muallimlar kursiga kirib o`qidi. Toshkent sha`ar O`rdadagi boshlang`ich maktabda o`qituvchilik qildi. 1923 yilda Digrez ma`allasida savodsizlar uchun kechki kurs tashkil etdi. 1924 yilda «‘ayot» maktabiga mudir etib tayinlandi. Keyinchalik O`rdada «Urfon» maktabi tashkil qilinib, uning yonida 150 bolalik internat-boqimsiz bolalar uyi ochildi. U shu internatda mudir va tarbiyachi bo`lib ishladi.

Uning birinchi she`ri 1923 yilda bosildi. («Felks bolalari»). Ikkinci she`ri «Go`zallik nimada?» she`ri 1923 yil aprel oyida bosildi. Uchinchisi ham shu yili «Surnay» nomi bilan «Maorif va o`qituvchi» jurnalida bosilib chiqdi.

«Go`zallik nimada?» she`ri ilk ijod namunasi bo`lishiga qaramay, yosh shoirning g`oyaviy-estetik qarashi ifodalanganligi bilan xarakterlidir. SHoir go`zallikni me`natda, xalq baxt-saodati yo`lida xizmat qilishda deb biladi.

G`ulom 1926 yildan «Mushtum», «Er yuzi» jurnallarida, «Kambag`al de`qon», «SHarq ‘aqiqati», «qizil o`zbekiston» gazetalari redakciyalarida adabiy xodim, ocherkist-feletonist bo`lib ishladi.

30-yillarda G`ulomning qator she`riy to`plamlari va poemalari nashr etildi. Uning «Dinamo» (1935), «Tirik qo`shiqlar» (1932) to`plamlariga kirgan she`rlari, «Ko`kan», «Ikki vasiqa» kabi poemalar yaratildi.

G`ulomning urush yillari ijodida «Sanoatim» (1937), «Qish» (1941), «Sog`inish» (1941), «Bizning ko`chada ham bayram bo`lajak» (1942), «Ko`z keldi» (1943), «CHin arafa» (1945) she`rlari o`zining etukligi bilan ajralib turadi. SHoir she`rlarida, ayniqsa, falsafiy obrazlilik kuchli. Uning

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so`raydi qadrin.

Fursat g`animatdir sho` satrlar-la,

Bezamoq chog`idir umr daftarin.

satrlari xarakterlidir. SHoirning shundiy satrlari borki, ular yuksak tafakkur, falsafa bilan omuxta. Uning «Ona» (1953) she`rida «Oltin rudasiday ishlanmagan ong» tarzidagi quyma satrlari fikrimiz dalilidir. Go`dakning ongi

‘ali tafakkur qila olarlik darajada emas. Bu ‘ol tarbiyadan so`ng, muayyan vaqt o`tgach ro`y beradi.

G`ulom asarlarida falsafiy ifodaning turli-tuman poetik talqinini va har gall rang-barang milliy obrazlardagi inkishofini uchratamiz:

Tanburda bir zarbning uni tinmasdan,  
Yillardan-yillarga o`tar umrimiz.

(«Yangi yil», 1947)

milliy xarakter yaratishda G`ulom shu qadar ustaki, bir necha satrga milliy tabiat va urf-odatni ham jo qila oladi. «YOz boshi» (1961) she'ridagi ushbu parchada buning yorqin dalilini ko`ramiz:

Ifod ‘idli qulpunoy bir la’cha cho`g` kabidir,  
Mushki anbar yoqilgan gul’an nishonasidan.  
‘ayo bilan yumilgan kelinchaklar labidir,  
O`pich maza keladi har bitta donasidan.

G`ulom Vatan ‘aqidagi siyosiy muammolarga esh, ijtimoiy maqsad va mazmunga to`yingan she’rlari qatorida, mafkura, siyosat, ijtimoiy talqindan ‘oli, xuddi tabiatning o`zidek tiniq va go`zal tarannum etilgan tuyg`ular kabi samimiy va bokira she’rlari ham borki, ularni o`qib xuddi ona tabiat qo`yniga tushgandek ‘ayajondan to`lqinlanib, ro’atlanib, entikib ketasiz. «Bir tomchi bol» she’ri bunga namuna bo`la oladi:

Asalarilarning  
Tinmag`ul qo`shinlari  
Gullardan gulga uchar  
Ko`klamdagи emchiday.  
G`unchadagi zarlarning  
Tillarang kukunlari  
Bolga aylanib ko`char  
Ko`z ilg`amas tomchiday.

Tabiatni, bollarini, tarxil mevalar go`zalligini, ularning anvoi ‘idlarini betakror misralarda tarannum etgan shoir, bularning hammasini sekin-asta bir

fokusga-Vatan jamoli va Vatan mazmuniga yo`naltira boradi: «Bir qatra bol ichida butun ko`nglim yashirin».

G`G`ulomning qiziqmagan narsasi oz bo`lgan. U ayniqsa, xalq urf-odati, feol-atvori, udumlarini ikir-chikirigacha yaxshi bilgan. Bir so`z bilan aytganda, o`zbek millati uchun xos bo`lgan deyarli barcha fazilatlar G`G`ulom shaxsida mujassam edi. O`zbek tilining boyligi, nazokati, qochirimlari o`zbek adabiyotida G`G`ulom darajasida biluvchi shoir, yozuvchini topish qiyin.

... G`G`ulom S.A'madning guvo'lik berishicha ko`pdan buyon «nonushta» so`zining etimologiyasi, kelib chiqishi bilan qiziqib yurar ekan. Kunlarning birida Sadriddin Ayniydan bu ‘aqda so`raydi. Uzoq mulo'azadan so`ng «noshita» so`zining buzilgan shakli, yaoni «och qoringa eyilgan taom» degan fikrga keladilar. Bu so`z forscha ekan.

YOshlarning «She'r qanday yoziladi?» degan savoliga G`G`ulom «She'r yozish uchun avval qo`lni yaxshilab atirsovun bilan yuvish kerak», der ekan. Bu albatta ‘azil. Lekin unga shoir poklikka ishora qiladi. Inson qo`li ham, ko`ngli ham pok bo`lsagina yaxshi she'r tug'iladi demoqchi shoir. G`G`ulom yaxshigina rasm chizgan. Dutor chalishni ham bilgan.

G`G`ulom, aksar she'rlarida O`zbekistonni, uning tuprog`ini, oddiy odamlarini umuman, Vatanni ulug`lashga alo'ida eotibor beradi. U qaysi muammoni badiiy yoritishga chog`lanmasin, qalamini qaysi mavzuga yo`naltirmasin, bu masala she'rlarida ko`ndalang bo`laveradi. U «Kulol va zargar» she'rida «Bu tuproq che'rasi - Vatan che'rasi, Ota-onamizning yuzidek tanish» deya yozadi.

G`G`ulom tabiatan ni'oyatda taosirchan kishi bo`lgan. O`zganing xursanchiligidan bap-baravar quvona olgan, kimsaning qayg`usiga qo`shilib bap-baravar yig`lagan. El-yurt boshiga tushgan tashvishni baozan shu darajada o`ziga qattiq olganki, bu narsa ‘atto uning sog`ligiga etarli darajada taosir ko`rsatgan. Mu'arram ayaning eslashlaricha, Toshkent zilzilasi bo`lgan kunlari G`G`ulomning deyarli barcha tishlari qimirlab qolgan ekan.

1966 yil ... Zilzila tufayli uyidan mahrum bo`lgan oilalardan birining ko`chada chodir tikilgan boshpanasi. Bu kapada yoshgina bir o`g`il bola bilan jajjigina qizaloq bahorning namxush ‘avosida diydirab o`tiribdi. Buni ko`rgan G`G`ulom o`zini tuolmay xo`ng-xo`ng yig`lagan ekan.

G`G`ulom she`rpiyati o`ziga xos maktab bo`ldi. Ko`plab keyingi avlod ijodkorlari undan ijod sirlarini o`rgandilar.

### **UMUMIY XULOSALAR**

Ma'lumki, lirkada nasriy va dramatik turlardan farqli o'laroq, voqelik shaxsning his—tuyg'ulari, kechinmalari, idroki orqali aks etadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, shoir his—tuyg'usiga to'la beriladi. She'riy shakl lirkada ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi.

Voqelikning muayyan shaxs (subyekt) orqali aks etishi lirika xarakterini belgilovchi muhim xususiyatdir. Ana shu xususiyat lirkada juda ko'p masalalarni o'ziga xos shaklda hal etishni taqozo qiladi. Lirk asar, odatda, kichik hajmli bo'lishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega bo'ladi. Lirkada ham voqelik qarama—qarshilik nasriy asar, dostonlardagi kabi voqeа—hodisalar orqali emas, balki tuyg'ular ziddiyatli, kurashi orqali aks etadi. Demak, nasriy asarda voqealar rivoji, lirkada esa kechinmalar rivoji yetakchilik qiladi. Mana shu kechinmalar rivoji lirk qarama—qarshiliqdan iborat bo'lib, u hamma vaqt chegaralangandir. Bu qarama—qarshiliklar asosni eskilik bilan yangilik, yaxshilik bilan yomonlik, go'zallik bilan xunuklik, oljanoblik bilan pastkashlik o'rtasidagi kurash tashkil etadi. Shu tarzda lirk asarda ham aniq shaxsiy kechirmalar ifodalanadi, shu jihatlari bilan shaxsiy kechinmalari orqali hayotning go'zal va xunuk tomonlari aks ettiriladi. «Kechinma» so'zi keng

ma'noga ega bo'lib, u turli sharoitda yuzaga kelgan turli emotsiyalarni o'z ichiga oladi. Falsafiy va siyosiy fikrlar ham, sevgi haqidagi o'ylar ham, garchi o'z mazmuniga ko'ra turlichcha bo'lsada, aniq insoniy his va sub'ektiv emotsiyal xususiyatga ega bo'lган fikr sifatida kechinmalar tarkibiga kiradi. Shu boisdan lirik she'rlar hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, chuqur mazmunli bo'ladi. Doston, masal, hikoya, qissa va romanlarda yozuvchi boshqa odamlar haqida, lirik she'rlarda esa yozuvchi o'zi to'g'risida, o'zining xayol va o'ylari, orzu – istaklari, hissiyorlari va boshqa odamlarga, tabiatga bo'lган munosabatlari haqida gapiradi. Hikoya, qissa, roman va masallarda yozuvchi tasvirlanayotgan voqeaga xolis munosabatda bo'lib, unga o'z bahosini beradi. Lirik asarlarda esa bu munosabat shoirning kechinmalari va his – tuyg'ulari orqali ifoda etiladi. Lekin hayotga bo'lган munosabatini hamisha o'zi – birinchi shaxs nomidan emas, balki ayrim hollarda ikkinchi va hatto, uchinchi shaxs nomidan ham ifodalashi mumkin.

Lirik tur janrlarning asosida ham inson hayoti, muhabbat va nafrati, sevinchi va iztirobi o'zining badiiy ifodasini topadi. Insonning hayot hodisalari va tabiatga munosabatidan turli – tuman lirik lavhalar, lirik janrning xilma – xil turlari yuzaga keladi. Shu sababli boshqa adabiy turlarga mansub bo'lган qarama – qarshilik, xarakter, syujet, kompozitsiya, tipiklashtirish va individu allashtirish kabi adabiy tushunchalar lirikaga ham xos bo'lib, ular lirikaning o'ziga xos tabiatini bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.T. “Ma’naviyat”. 2008.
- 2.Adabiyot nazariyasi. Iikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
- 3.Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O’zbekiston», 2002.
4. Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so’zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010.
5. DTS. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2008-yil, 8-sont.
- 6.To’xliyev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. T. “Yangi asr avlodi”. 2006.
- 7.Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O’qituvshi” 1996.
8. <http://pedagog.uz/>

9. [www.o'zbek](http://www.o'zbek.adabiyoti.com) adabiyoti.com